

RESPUBLIKADA BIZNESVA UNI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI



AVAZBEK VALIYEV
MA'RUF O'G'LI

21/2-guruh talabasi
Stars International University
valevavazbek003@gmail.com

ILMIY RAHBAR: SAIDOVA
MARHABO XABIBULLO QIZI,
PhD, доцент
Stars International University
saidovamarhabo1991@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp313-319>

Abstract: The article reviewed a statistical analysis of business development as well as there were given necessary recommendation in order to enhancing business environment in Uzbekistan.

Keywords: *business, privatization, ownership, uniform state business register, employment, level of welfare.*

O'zbekiston Respublikasida biznes sohasining rivojiga mamlakat o'z suverenitetiga ega bo'lgan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli"ni ishlab chiqqan vaqtdan boshlab alohida ahamiyat qaratilmoqda. Boisi ushbu sohani rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik oshadi, kambag'allik darajasi pasayishi hisobiga aholining o'rtacha daromadli qatlami ko'payadi hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishiladi.

Biznes har qanday sharoitga tez moslashuvchan va o'zgaruvchan tendensiyalarga javob bera oladigan, innovatsiya va novatsiyalarning yaratilishiga hamda amalda qo'llanilishiga olib keladigan, iqtisodiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Barcha rivojlangan davlatlar tajribasidan biznes sohasining nechog'lik muhim tarmoq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Amerika iqtisodiyoti rivojida Vanderbilt, E.Karnegi, Rokfeller, J.P.Morgan va g.Ford magnatlarining biznesni noldan boshlab, aql bovar qilmas darajada rivojlanib ketishiga erishish orqali butun insoniyat tarixiga foyda keltirganligi ma'lum. Bundan kelib chiqib ayta olamizki, mablag' yetarli bo'lmasa-da, biznes reja va biznes g'oya orqali moliyalashtirish manbalarini topib, sherikchilik asosida, boshlanishida kichik biznes sub'yekti bo'lib, keyinchalik yirik biznesga aylanib, birinchi navbatda o'z oilasiga, Vataniga, xalqiga foydasi tegadigan tadbirkor bo'lishi mumkin.

Yurtimizda biznes rivojlanishini yangi bosqichiga o'tish, tadbirkorlik sub'yektlariga yanada yaxshi shart-sharoitlar yaratish maqsadida respublikamiz birinchi

Prezidenti I.A.Karimov tomonidan qabul qilingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga oid barcha qonun va qonunosti hujjatlari, tashabbus va takliflarini davom ettirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashga ahamiyat qaratib, o'z ma'ruzalarida "har bir xonadonning tadbirkorlik borasidagi imkoniyatini o'rganish, moliyalashtirishni kengaytirish bilan bog'liq muammolarini hal etish, tadbirkorlarni ishontirish va ularga amaliy yordam berish kerak. Tadbirkorlarning ko'pchiligi haqiqiy fuqarolik pozitsiyasida turib, yetim bolalar va nochor oilalarga, mahallalar va ijtimoiy soha muassasalariga beg'araz yordam bermoqda" deya ta'kidlagan.[1]

Biznesning jamiyat ijtimoiy tizimida tutgan o'rni tahlil qilinar ekan, bu borada olimlarning qarashlari ham albatta muhimdir. R.Kantilon, M.Veber, V.Zombard, Y.Shumpeterlarning izlanishlarida tadbirkor "biznes-lider", ishlab chiqarishning tashkilotchisi, deb e'tirof etilgan. J.Sey tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga asosan, tadbirkorga ilk marotaba menejer sifatida qarash shakllangan. F.Xayek tadbirkorlar o'rtasidagi qattiq raqobat kurashiga alohida e'tiborni qaratib, tadbirkorlik faoliyatining alohida ajratib turuvchi belgisi sifatida-daromad olish maqsadida yangi imkoniyatlarni qidirishga intilishni ajratib ko'rsatadi. Shuningdek, R.Finchman ishlarida asosiy e'tibor kasbni egallash jarayonida, ya'ni talabalarni kasbga tayyorlash davomida kasbiy talablar, axloqiy normalar, qadriyatlarni anglashga qaratiladi. Kasbiy sifatlarining shakllanish jarayoni talabaga kasbiy o'z-o'zini boshqarish imkonini beruvchi kasbiy taraqqiyotni ta'minlaydi.

K.MAK-Goven va L.Xartlar asosiy urg'uni o'z tarkibiga kasbiy rollarni amalga oshirish va yangi qadriyatlarni, ustanovkalarni va kasbiy sifatlar tarkibini rivojlanishi uchun talab etiladigan maxsus bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni qamrab oluvchi ijtimoiy o'rganish jarayoniga qaratadilar.

Sharq mamlakatlaridan, Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd, Yusuf xos Hojib, Amir Temur va boshqa bir qator olimlarning fikr-mulohazalari ham bayon etilgan.

Shuningdek, hozirgi o'zbek olimlaridan i.f.d. A.Abdullaev, i.f.d. A.Sotvoldiev, i.f.n. I. O'rinboev, i.f.n. S. Abdullaev, i.f.D. A. Qodirov, i.f.n. M.Teshaboev, H.Aybishev, S.G'ulomov, M.Boltabaev, B.G'oyibnazarovlar o'zlarining ilmiy izlanishlari bilan tadbirkorlikni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Biznes sohasi aholining barcha qatlami shug'ullanishi mumkin bo'lgan sohadir, ayniqsa, u xotin-qizlarni o'zlariga munosib mehnat bilan bandligini ta'minlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasida, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, jahon standartlariga javob bera oladigan milliylik hamda zamonaviylik unsurlarini o'zida aks ettirgan mato va liboslarni yaratishni rivojlantirish lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar berish borasidagi davlatimizning oqilona iqtisodiy siyosati tufayli mamlakatimizda qulay makroiqtisodiy muhit yaratilib kelinmoqda. Xususan, xususiy mulk va tadbirkorlik huquqini himoya qilish borasidagi qonunchilik mustahkamlandi, "on-line" tarzida ro'yxatdan o'tish, ixtiyoriy ravishda yopish va tugatish, ayrim faoliyat turlari bo'yicha litsenziya va ruxsatnomalarni olish jarayonlari soddalashtirildi, davlatning biznes faoliyatiga aralashuvi cheklandi, tadbirkorlarni rejadan tashqari tekshirish holatlariga chek qo'yildi, tadbirkorlik sub'yektlari topshiradigan hisobotlarning barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirildi, soliq stavkalari unifikasiya

qilindi, talab yuqori bo'lgan moddiy texnik resurslardan keng foydalanishga imkon beradigan barqaror bozor mexanizmi shakllandi. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari soni ko'paymoqda. Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda, 278,5 mingtaga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 257,8 mingtani tashkil qildi.[2]

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari dasturi amalga oshirilishi doirasida 2016-yil mobaynida qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza tashkil etish hamda uni takomillashtirish ishlari davom ettirildi. Xususan, qurilishning barcha bosqichlarida tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari doirasida yagona qoida va talablar belgilandi, bino va inshootlar tashqi ko'rinishini o'zgartirish, ob'yektlarni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilishga, shuningdek, turar joylarni noturar joylar toifasiga o'tkazishga ruxsat berish talablari joriy etildi. Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik sub'yektlari huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralari kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-sonli "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni doirasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan "Davlat xaridlari to'g'risida", "Davlat va xususiy sektor sherikligi to'g'risida"gi Qonun loyixalari hamda 30 dan ziyod qonun va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash borasida faol ishlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 2016-yil mobaynida kichik biznes sub'yektlariga 15,9 trillion so'mlik kreditlar ajratildi va o'sish o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobarni tashkil qildi. Jumladan, qiymati 3,3 trillion so'mlik mikrokreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 206,7 million dollar miqdoridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi.

2016-yil mobaynida "E-ijro" idoralararo elektron hamkorlik tizimini faol joriy etish asosida tadbirkorlik sub'yektlariga "yagona darcha" markazlari orqali 100 mingdan ziyod davlat xizmatlari ko'rsatildi. 127 mingdan ziyod firma nomlariga Internet orqali buyurtma berildi.

Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar 2016-yil mobaynida qariyb 32 ming yangi kichik biznes sub'yekti tashkil etish imkonini berdi. Natijada, 2016-yil yakuni bilan yalpi ichki mahsulotda kichik biznes ulushi 56,9 foiz (o'tgan yilda bu ko'rsatkich 56,5 foiz bo'lgan), sanoatda 45 foiz (40,6 foiz), investisiyalarda 40,3 foiz (36,3 foiz), qurilishda 70,7 foiz (68,4 foiz), chakana savdo aylanmasida 89,6 foiz (87,1 foiz) va bandlikda 78,1 foiz (77,9 foiz) oshdi.[5]

O'tgan yilda 27,9 mingta yangi korxona va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lsa, shundan kichik biznes sub'yektlari 26,9 mingtani tashkil etgan. Yangi tashkil topgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahrida respublika bo'yicha jami korxona va tashkilotlarning 25,5 foizi, Toshkent viloyatida 9,9 foizi, Farg'ona

viloyatida 8,4 foizi va Samarqand viloyatida 7,6 foiziga to'g'ri keladi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 29,3 foizi savdo va umumiy ovqatlanish, 23,7 foizi sanoat va 10,8 foizi qurilish sohalariga to'g'ri keladi. [3]

Kichik tadbirkorlikning xususiy sektorida ish bilan band bo'lganlar soni 9376,4 ming kishini yoki jami sohada band bo'lganlarning 92,1 foizini tashkil qildi.[2]

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha xususiylashtirish ishlari davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yil davomida 848 ta korxona va ob'ektlar xususiylashtirilgan edi.


Jumladan, Toshkent viloyatida 128 ta, Namangan viloyatida 108 ta, Farg'ona viloyatida 100 ta, Andijon viloyatida 82 ta, Qashqadaryo viloyatida 54 ta, Jizzax viloyatida 53 ta va Surxondaryo viloyatida 52 ta ob'ekt xususiylashtirildi.

Xususiylashtirilgan davlat mulki tarkibida asosiy ulush mahalliy hokimiyatlarga to'g'ri keladi va u 478 ta ob'ektni tashkil etadi.

2015-yilda YAIM va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida hamda aholi bandligi bo'yicha davlat va nodavlat sektorlarining nisbati umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida quyidagicha ifodalanadi:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida o'tgan yilda 26,9 mingta yangi kichik biznes sub'ektlarini tashkil etish imkonini berdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida quyidagicha ifodalanadi:



Manba: O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2015- yil mobaynida davlat aktivlarini sotishdan 2-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi.

Yuqoridagi grafik malumotlaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 36314,9 mlrd.so'm bo'lib, 98,3 % ni tashkil etgan hamda o'tgan yilda 0,1 % ga ko'paygan, shuningdek, qurilish ishlari hajmi esa o'tgan yilda 13944,9 mlrd. so'm bo'lib, 69,2 % ni tashkil etgan,

ammo 2015 - yilda u kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 2 % ga pasaygan. Boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida esa faqat ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmida kichik tadbirkorlikning ulushining o'sib borayotganligi tasvirlangan tushgan pul mablag'lari 103,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Hududlar kesimida davlat aktivlarini sotishdan tushgan pul mablag'larining 61,0 foizi Toshkent shahriga, 11,6 foizi Toshkent, 4,9 foizi Farg'ona, 4,4 foizi Namangan, 4,0 foizi Xorazm viloyatlari va 3,5 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.[3]

O'tgan yilda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibi quyidagicha ifodalanadi [4]:

1-jadval

O'tgan yilda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibi

Mulkchilik shakllari	Mrld.so'm	2014-yilga nisbatan foiz hisobida	Umumiy hajmda nisbatan foiz hisobida
1	2	3	4
Jami	71025,6	115,1	100,0
davlat mulki	95,4	0,115	0,1
nodavlat mulki	70930,2	114,9	99,9
shundan:			
fuqarolarning xususiy mulki	51949,0	84,0	73,1

Jadval malumotlari o'tgan yilda chakana savdo tovar aylanmasi 71025,6 mlrd. so'mni yoki 2014-yilga nisbatan 115,1 foizni tashkil qilganini aks ettirgan. Bunda davlat mulki 95,4 mlrd. so'mni yoki 2014-yilning tegishli davriga nisbatan 95,4 foizni, nodavlat mulki 70930,2 mlrd. so'mni yoki 2014-yilning tegishli davriga nisbatan 114,9 foizni tashkil etgan.

Yirik korxonalar chakana savdo tovar aylanmasi 9185,7 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2014-yilga nisbatan 9,0 foizga ortdi. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 12,9 foizni tashkil qildi.

Biznes sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi 16,0 foizga ko'payib, 61839,9 mlrd. so'mni, chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmidagi ulushi esa 87,1 foizni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tovar aylanmasi umumiy hajmda uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10843,6 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki o'tgan yilga nisbatan 9,8 foizga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmda ushbu sektor ulushi 15,3 foizni tashkil qilgan.

2015-yil mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi quyidagicha ifodalanadi [4]:

2-jadval

o'tgan yilda chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi 2015-yil mobaynidachakana savdo aylanmasi tarkibi quyidagicha ifodalanadi [4]:

O'tgan yilda chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Mulkchilik shakllari	Mlrd. so'm	2014-yilga nisbatan foiz hisobida	Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida
1	2	3	4
Jami	71025,6	115,1	100,0
Yirik korxonalar	9185,7	109,0	12,9
Kichik tadbirkorlik	61839,9	116,0	87,1
Shundan uyushmagan savdotovar aylanmasi	10843,6	109,8	15,3

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatishning asosiy qismikorxona va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, 15342,7 mlrd. so'mni tashkil qildi (umumiy hajmning 56,1 foizi) va 7,9 foizga ko'paydi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 14,9 foizga o'sib, 12003,5 mlrd. so'mni, pullik xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi esa 43,9 foizni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 873,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 8,9 foizga ortgan.

Aholiga ko'rsatilgan umumiy pullik xizmatlar hajmida nodavlat sektori ulushi 86,5 foizni tashkil etadi.

Davlatimizning iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirish siyosati amalga oshirilayotgan bugungi kunda respublikamizda kichik biznesning tizim sifatida shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini, undagi mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish, respublikamiz va mintaqalarda kichik biznes rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini modellashtirish, statistik prognozlash usullari yordamida ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunda biznes va tadbirkorlikning innovatsion turi bo'lgan axborot-kommunikatsiyalar bozorini, tadbirkorlik faoliyatini avtomatlashtirish, avtomatlashtirishning shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini modellashtirishning nazariy-uslubiy va amaliy masalalari ishlab chiqilmoqda.

Qisqa qilib aytganda, kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda o'sishiga asos bo'lib, aholi bandligini ta'minlash va uning turmush farovonligi darajasini yuksaltirishda muhim soha bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirish siyosati amalga oshirilayotgan bugungi kunda respublikamizda kichik biznesni tizim sifatida shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari, undagi mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish, respublikamiz va

mintaqalarda kichik biznes rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlarini modellashtirish, statistik prognozlash usullari yordamida ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Oʻzbekistonda bugungi kunda biznes va tadbirkorlikning innovasion turi boʻlgan axborot-kommunikatsiyalar bozori, tadbirkorlik faoliyatini avtomatlashtirishning nazariy-uslubiy va amaliy masalalari ishlab chiqilmoqda. Kichik korxonalarning faoliyatini yanada erkinlashtirish, kengaytirish uchun quyidagi takliflarni bildirishimiz mumkin: jismoniy shaxslar mavjud biznes gʻoya va biznes rejalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qoʻllab-quvvatlovchi jamgʻarmalarga namoyish etish orqali, moliyalashtirish manbalariga ega boʻlishi kerak; ishchi-xodimlar uchun qiziqish doirasidagi, qobiliyati, isteʼdodiga muvofiq ish oʻrinlariga yoʻnaltirish, bu orqali mehnat unumdorligi oshishiga erishish mumkin; tashkil etilgan imkoniyatlar va qulayliklarni yangi tashkil topgan kichik biznes korxonalari va tadbirkorlarga yetkazishni ommalashtirish uchun joiz boʻlsa, har oʻnta korxona uchun tegishli organlardan bittadan shaxs har oyda yangi maʼlumotlarni yetkazish va tushuntirish uchun korxonaga borishi lozim. Milliy bank huzuridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi,» Oʻztadbirkoreksport» va «Oʻzsanoateksport» aksiyadorlik jamiyatlari kabi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qoʻllab-quvvatlovchi yuridik institutlarni koʻpaytirilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasi. 16.01.2017. 10-b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasining statistik axborotnomasi. Toshkent 26.04.2016. 7-b.
3. Uzreport.uz. "More than 207 thousand small business entities operate in Uzbekistan".18.01.2016
3. Uzreport.uz. "Oʻzbekistonda 207 mingdan ortiq kichik biznes sub'yektlari faoliyat koʻrsatmoqda".18.01.2016
4. Oʻzbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik toʻplam. Toshkent 04.11.2016. 28-30 betlar.
5. Uzreport.uz. maʼlumotlar. 15.01.2017.